

№	MUNDARIJA	Page
1.	YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASHNING MOLIYAVIY ZARURLIGI VA AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	ПРИМЕНЕНИЕ МСФО 17 В СТРАХОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ И ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. АНАЛИЗ РЕЗЕРВОВ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ БАРЬЕРОВ <i>Баратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	O'ZBEKISTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	O'ZBEKISTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	ПЕРСПЕКТИВЫ И БАРЬЕРЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ (ТАКАФУЛ) В УЗБЕКИСТАНЕ <i>Мурадова Дилдора Абдусалимовна</i>	26
10.	YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV <i>Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xolbaev Azamat Yuldashovich</i>	34
12.	ПРЕИМУЩЕСТВА СТРАХОВАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ЭКОНОМИКЕ <i>Умарова Хуриида Олимжоновна</i>	38
13.	OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH <i>Dildora Bohodirovna Abdusattarova</i>	42
14.	SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	ЗЕЛЁНЫЕ ОБЛИГАЦИИ И КРЕДИТЫ: НОВЫЙ ВЕКТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ СТРАНЫ <i>Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHLILI

Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li

ISFT instituti "Fundamental iqtisodiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi
shohzodurlov25@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/300

Annotatsiya: Ushbu maqolaning maqsadi Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev belgilab bergan "Yangi O'zbekistonning 2030-yil strategiyasida ko'zda tutilgan maqsadlardan biri "Suveren kredit reytingini BB- dan BBB ga o'tqazish uchun to'siq bo'layotgan masalalar va qo'shni mamlakatlarning bu borada tutgan yo'li hamda jaxon reyting agentliklari ichida yuqori o'rinda turgan reyting agentliklarining baholash mezonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kredit reyting, moliya bozori, S&P, Moody's, Fitch Ratings, YaIM, global moliyaviy inqiroz, moliya.

Abstract: The purpose of this article is "One of the goals set by our President Sh.M. Mirziyoyev in the 2030 strategy of the new Uzbekistan" is the issues that are an obstacle to the transfer of the sovereign credit rating from BB to BBB and the neighboring the path of the countries in this regard and the evaluation criteria of the rating agencies, which are at the top of the world rating agencies, are discussed.

Keywords: Credit rating, financial market, S&P, Moody's, Fitch Ratings, GDP, global financial crisis, finance.

Абстрактный: Цель данной статьи: «Одной из целей, поставленных нашим Президентом Ш.М.Мирзиёевым в стратегии нового Узбекистана до 2030 года», являются вопросы, которые являются препятствием для перевода суверенного кредитного рейтинга с BB на BBB и обсуждаются соседние пути стран в этом отношении и критерии оценки рейтинговых агентств, находящихся на вершине мировых рейтинговых агентств.

Ключевые слова: Кредитный рейтинг, финансовый рынок, S&P, Moody's, Fitch Ratings, ВВП, мировой финансовый кризис, финансы.

Kirish (Введение/Introduction)

Jahon iqtisodiyoti integratsiyalashgan sari suveren kredit reytinglari global kapital oqimini yo'naltirishlarini belgilovchi eng muhim elementlaridan biriga aylandi. Kredit reyting agentliklarining ham milliy iqtisodiyotga, ham jahon iqtisodiyotiga ta'siri oshdi. Boshqa tomondan, kredit reyting agentliklari 1990-yillardagi va 2008-yilda boshlangan global moliyaviy inqirozlarni oldindan ko'ra bilib, o'z vaqtida to'g'ri baholay olmaganligi uchun qattiq tanqid qilindi.

Moliya bozorlarida 100 yildan ziyod vaqt mobaynida faoliyat yuritgan kredit reyting agentliklari reytingni baholash metodologiyasidagi kamchiliklar sabablar tanqidlarga uchragan. 2008-yilda yuzaga kelgan global moliyaviy inqiroz ushbu tanqidlarni yanada ko'payishiga olib keldi. Kredit reytingi yuqori bo'lgan kompaniyalar va davlatlarning obligatsiyalari yuqori riskli ekanligi aniq bo'lgan bo'lsa-da, kredit reyting agentliklari ularni yuqori reyting bilan baholagani reytingdagi ishonchiligi shubha ostiga olindi. Ushbu tanqidchilarni quyidagicha umumlashtirish mumkin;

- Kredit reyting agentliklarining baholash usuli yetarli darajada mukammal emas;
- Kredit reytingi bozorida raqobatning yo'qligi;
- Kredit reyting agentliklarning daromad modeli tufayli manfaatlar to'qnashuvi;
- Kredit reyting agentliklari inqirozni oldindan ko'ra bilmasligi va ularni hozirgi joriy holatini haddan yizod salbiy baholashi;

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review/ литературный обзор).

Reyting agentliklari mamlakat suveren kredit reytingini belgilashda ko'plab omillarni hisobga oladi. Kredit reyting agentliklari tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda ularning suveren kredit reytinglari asosida ko'plab iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar keltirilgan. 2015-yil Fatih Bahadir Haspolatning "Procedia Economics and Finance" jurnalida "Moody's suveren kredit reytingini tahlil qilish: Reyting agentliklariga nisbatan tanqidlar hozir o'z kuchini yo'qotadimi?"[1] (Analysis of Moody's Sovereign Credit Ratings: Criticisms Towards Rating Agencies

Are Still Valid?) nomli maqolasida avvalgi tadqiqotlar va Moody's reyting metodologiyasi asosida, o'n uchta iqtisodiy va beshta korporativ boshqaruv ko'rsatkichlari va suveren kredit reytinglarini bashorat qilish uchun uchta model ishlatgan holda qaysi omillar reytinglarni belgilashda eng kata ega ekanligi va baholash metodologiyasidagi kamchiliklarni ko'rsatib bergan.[2] Yevropalik olimlar Periklis Boumparis, Costas Milas, Theodore Panagiotidis, Cecilia Téllez Valle, José Luis Martín Marín, Michael Kissner, Turkiyalik olim Fatih Bahadir Haspolat suveren kredit reytingni yaxshilashning eng samarali usuli bu soliq tizimini isloh qilish deb aytib o'tgan.[3]. Amerikaning Arizona universiteti iqtisodchi olimlari João C.A.Teixeira, Francisco J.F. Silva, Manuel B.S. Ferreira, José A.C. Vieira suveren reyting mamlakat iqtisodiyotini yuqorilashishida asosiy funksiyalarni bajaradi deb ta'kidlashadi.[4]. Bundan tashqari Hindistonlik Masood O, Bashir F and Sahi AI, kabi olimlar o'zlarining ilmiy ishlari va maqolalarida suveren reytinglarni va ularni baholash metodologiyasini chuqur tadqiq qilishgan.[5].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы/Methods).


Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlillar (Анализ/Analysis).

Moody's reyting agentligi metodologiyasi ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha YaIM, boshqaruv sifati, to'lov balansi, makroiqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari va o'sish prognozlar, mamlakatning sanoatlashgan bo'lishi va xazira valyutaga ega bo'lish suveren kredit reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida aniqlandi. Boshqa tarafdin; valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi, foizlar bo'yicha to'lovlar, qarzlarni hajmlari va ssudalarning paydo bo'lishi kredit reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar hisoblanadi.

Tahlil natijalari kredit reyting agentliklarini iqtisodiy inqirozni oldindan baholay olmaganligi va mavjud inqirozlarni keskin salbiy baholayotganligi uchun tanqid qilinmoqda. Gretsiyaning reyting tarixini

tahlil qilib kredit reyting agentliklarini nima uchun tanqid qilinayotganligini tushinish mumkin. Gretsiya va boshqa ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarini tahlil qilib, Moody's har safar reyting qo'llanmalariga ko'ra reyting bermasligi kuzatilmoqda. Reytinglar mamlakatlarning haqiqiy iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini aks ettirmaydi. Moody's reytinglari va reyting mezonlari S&P va Fitch Ratings kabi boshqa yirik kredit reyting agentliklari bilan o'xshashligini hisobga olsak, kredit reyting agentliklari baholash metodologiyasi bir-biriga yaqin.



1-diagramma. Moody's agentligining reyting baholash metodologiyasida reytingni baholashga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, foizda[6]

S&P, Moody's va Fitch kabi reyting agentliklarini suveren kredit reytinglarini baholovchi metodologiyasi asosida reytinglarni baholashda foydalanadigan ko'rsatkichlari haqiqatga mos keluvchi statistik va boshqa tahlillarga asoslangan, mamlakat reytinglari, fikrimizcha, nisbiy ko'rsatkichdir. Chunki, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrlarida yuqori reytingga ega bo'lgan Gretsiya, Italiya va Ispaniya kabi davlatlar chuqur moliyaviy inqiroz holatiga tushib qolib, o'zlarining moliyaviy majburiyatlarini bajarolmay qoldilar. Jumladan, 2007-yil Moody's agentligi Gretsiya reytingini «A1» salbiy darajada baholagan bo'lsa, 2011-yilga kelib «Ca» salbiy, 2012-yilda esa «C» salbiy darajasida baholagan. 1-jadvalda keltirilgan reyting shkalalariga qaraydigan bo'lsak, «A1» –investitsiya darajasini yuqori o'rta sinfga kiruvchi shkala, «C» esa defolt holatini anglatuvchi reyting shkalasi hisoblanadi. 2007-yilda investitsiya darajasida baholangan davlatni 2012-yilda o'zini defolt deb e'lon qilishini o'ziyoq reyting agentliklarini baholash metodologiyasiga bo'lgan ishonchni susaytiradi.

Fikrimizni mantiqiy davomi sifatida 2021-yildan S&P, Fitch va Moody's reyting agentliklari tomonidan deyarli bir xil darajada baholangan ixtiyoriy 5 ta davlatni reytingini tahlil qilamiz.

1-jadval
Reytingi darajasi deyarli bir xil bo'lgan ixtiyoriy 5 ta davlat reytinglari [3]

Tr	Italiya	Qozog'iston	Rossiya	Hindiston	Portugaliya
S&P	BBB	BBB	BBB	BBB	BBB
	(barqaror)	(barqaror)	(barqaror)	(barqaror)	(barqaror)
Moody's	Baa3	Baa3	Baa3	Baa3	Baa3
	(barqaror)	(ijobiy)	(barqaror)	(salbiy)	(ijobiy)
Fitch	BBB	BBB	BBB	BBB	BBB
	(barqaror)	(barqaror)	(barqaror)	(salbiy)	(barqaror)

Ushbu jadvalda reyting darajasi bir biriga yaqin bo'lgan 5 davlat: Italiya, Qozog'iston, Rossiya, Hindiston va Portugaliya tanlab olindi. Yuqorida nomlari keltirilgan uchala reyting agentliklari bu davlatlarning reyting darajasini deyarli bir xil baholagan. 1-jadvalga qarab «BBB» reyting shkalasi investitsiya darajasidagi reyting shkalasi ekanligini bilishimiz mumkin. 2-jadvalda bu davlatlarning ba'zi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini taqqoslaymiz.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha YaIM reytinglarni baholashda eng katta ta'sirga ega ko'rsatkich ekanligini ilmiy ishimizning birinchi bobida batafsil to'xtalib o'tgan edik. Chunki, bu ko'rsatkichning qanchalik yuqori bo'lishi davlat soliq daramadlarining shuncha katta bo'lishini bildiradi. Italiyada bu ko'rsatkich tanlangan davlatlarimiz ichida eng yuqori 33 228,24 dollar, bo'lsa Hindistonda eng past 2 099.6 dollarni tashkil qilmoqda. Orasidagi farq deyarli 16 baravarni tashkil

2-jadval
Italiya, Qozog'iston, Rossiya, Hindiston va Portugaliyaning ba'zi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari [7,8,9,10,11]

Tr	Ko'rsatkichlar	Italiya	Qozog'iston	Rossiya	Hindiston	Portugaliya
1	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha YaIM (mlrd \$)	33 228,24	9 812,39	11 513,3	2 099,6	23 252,06
2	YaIMning yillik o'rtacha o'sishi	0,3	4,1	1,3	6,1	1,7
3	Iste'mol narxlar indeksi o'sishi	0,6	5,6	4,5	3,4	1,1
4	Davlat qarzi / YaIM	124,6	91,2	29,1	69,1	118,8
5	To'lov balans / YaIM	3,3	-2,8	3,8	-2,1	-0,6
6	Fiskal balans / YaIM	-3	-0,2	1,9	-3,3	-3,7
7	YaIM (mlrd \$)	2 004	176,6	1 689	2 935,6	238,8
8	Aholisi (mln)	60,36	18,5	146,7	1 330,1	60,36

etmoqda. Lekin YaIMning yillik o'rtacha o'sishi Hindistonda eng yuqori 6.1 % bo'lsa, Italiyada eng past 0.3 % ni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga mamlakatdagi inflyatsion jarayonlarni ifodalovchi iste'mol narxlar indeksi Qozog'istonda 5.6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, Italiyada 0.6 % ni tashkil qilgan. Bu juda yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Yevro mamlakatlari orasida eng katta davlat qarzga ega davlatlardan biri Italiya hisoblanadi. 2019-yilda Italiyaning davlat qarzi 2.457 trln dollarni ya'ni YaIMga nisbatan 124.6 % ni tashkil qilgan. Jadvaldagi mamlakatlar orasida Rossiyaning davlat qarzi YaIMga nisbatan 29.1% tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan davlat qarzi YaIMga nisbat 50% ni tasgkil etishi normol deb qabul qilinishini hisobga olsak, bu juda yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi.

2-jadvalda to'lov balansining YaIM ga nisbati, fiskal balansning YaIMga nisbati, mamlakatlarning YaIM hajmi va suveren kredit reyting agentliklari reytinglarni baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qayt etmasada aholi soni ham keltirilgan. Chunki, aholi soni ko'pligi potentsional ishchi kuchi sonini va bozor hajmini bildiruvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Xulosa o'rinda quyidagilarni keltirish mumkin. Kredit reytinglari bozorga uch jihatdan ta'sir qiladi:

- "axborot xizmatlari", unga ko'ra reytingning boshlang'ich darajasidan qat'iy nazar, reyting harakatlariga (reyting o'zgarishi yoki kredit shartlari) nisbatan sezilarli bozor reaksiyasi mavjud;
- investitsiya darajasi chegarasida yuqori yoki pastga qarab o'zgarishlarga moliya bozorlar bozorlaridan jalb qilinadigan qarz mablarining hajmiga va ularning foiz stavkalariga ta'sir qiladi.
- suveren qarzdorlikni o'zgarishi ichki foiz stavkalariga ta'sir qiladi;
- davlat obligatsiyalari dinamikasiga nisbatan suveren reyting dinamikasi past rivojlangan, bu esa rivojlanayotgan davlatlarning qarz mablag'lari bozorida siklini (pasayish yoki ko'tarilish) keskinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqil reyting agentliklarini shakllanishi, mavjud reyting agentliklari (Masalan Axbor reyting) mustaqil tarzda suveren reytinglarni hisoblab e'lon qilishlari va monitoringni amalga oshirishlari reyting bozorini rivojlanishi, tashqi agentliklar bilan munosabatlarni yaxshilanishi, reytingni oldindan aniqlash va mustahkamlash uchun choralarini ko'rish imkoniyatini beradi. Ushbu agentliklar faoliyatiga quyidagi talablarni qo'yish mumkin: agentlik manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarga asoslanishi mumkin emas, mavjud uslubiyot sifatini oshirish bo'yicha doimiy izlanishlar olib boradi, faoliyatini shaffofligi ta'minlanadi.

Qoidalar sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

- maslahat xizmatlarini ko'rsatishni taqiqlash;
- qaror qabul uchun ma'lumot yetarli bo'lmaganda reyting bermaslik;
- reyting modeli va uslubiyotini hamda tarixini yuritish va e'lon qilish;
- murakkablik darajasiga qarab reyting mahsulotlarini farqlash;
- yillik hisobotni taqdim etish;
- xodimlarga haq to'lash faoliyat ko'rsatkichlariga bog'liqligiga yo'l qo'ymaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar (References/Литературы)

1. Analysis of Moody's Sovereign Credit Ratings: Criticisms Towards Rating Agencies Are Still Valid?

2. Fatih Bahadir Haspolat "Analysis of Moody's Sovereign Credit Ratings: Criticisms Towards Rating Agencies Are Still Valid?"- Procedia Economics and Finance 30 (2015) 283 – 293
3. Periklis Boumparis, Costas Milas, Theodore Panagiotidis. "Economic policy uncertainty and sovereign credit rating decisions: Panel quantile evidence for the Eurozone", Journal of International Money and Finance 79 (2017) 39–71
4. João C.A.Teixeira, Francisco J.F. Silva, Manuel B.S. Ferreira, José A.C. Vieira, "Sovereign credit rating determinants under financial crises"- Global Finance Journal, 2018.
5. Masood O, Bashir F and Sahi AI, "Sovereign Credit Rating Changes and its Impact on Financial Markets of Europe During Debt Crisis Period (Greece, Ireland)"- Journal of Business & Financial Affairs, 2017
6. Muallif tomonidan S&P, Moody's va Fitch reyting agentliklarining hisobotlari asosida tayyorlandi.
7. Muallif tomonidan Jahon banki va International Monetary Fond-"Russian Federation: 2020 Article IV Consultation—Press Release; Staff Report", IMF Country Report No. 21/36, February 2021.
8. International Monetary Fond-"India: 2019 Article IV Consultation—Press Release; Staff Report; Staff Statement And Statement By The Executive Director For India", IMF Country Report No. 19/385, December 2019.
9. International Monetary Fond-"Italy: 2021 Article IV Consultation—Press Release; Staff Report; And Statement By The Executive Director For Italy", IMF Country Report No. 21/101, June 2021.
10. International Monetary Fond-"Portugal: 2019 Article IV Consultation—Press Release; Staff Report; And Statement By The Executive Director For Portugal", IMF Country Report No. 19/221, July 2019.
11. International Monetary Fond-"Republic Of Kazakhstan: 2019 Article IV Consultation—Press Release; And Staff Report", IMF Country Report No. 20/32, January 2020 hisobotlari asosida tayyorlandi.